

O'ZBEK ANTROPONIMIKASIDA MADANIY KONNOTATSIYALI NOMLAR

Allamuratova Xosiyat, Termiz davlat universiteti tayanch
doktoranti

КУЛЬТУРНО-КОННОТАТИВНЫЕ ИМЕНА В УЗБЕКСКОЙ АНТРОПОНИМИКЕ

Алламуратова Хосият, базовый докторант Термезского
государственного университета

CULTURALLY CONNOTATIVE NAMES IN UZBEK ANTHROPOONY

Allamuratova Khosiyat, basic doctoral student at Termez State
University



[https://orcid.org/0009-0001-
6406-3137](https://orcid.org/0009-0001-6406-3137)

e-mail:

allamuratovax@tersu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek antroponimikasidagi madaniy konnotatsiyali nomlarning lingvistik va madaniy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan ismlar diniy, tarixiy, estetik va totemistik guruhlarga ajratilib o'r ganilgan. Ushbu maqola lingvistika, etnolingvistika va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: antroponimika, madaniy konnotatsiya, o'zbek ismlari, diniy ismlar, tarixiy ismlar, etnolingvistika.

Abstract: This article analyzes the linguistic and cultural aspects of culturally connotative names in Uzbek anthroponomy. During the research, names with cultural connotations were classified into religious, historical, aesthetic, and totemic groups. This article serves as an important scholarly source for studies in linguistics, ethnolinguistics, and cultural studies.

Keywords: anthroponomy, cultural connotation, Uzbek names, religious names, historical names, ethnolinguistics.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические и культурные аспекты культурно-коннотативных имён в узбекской антропонимике. В ходе исследования имена с культурной коннотацией были классифицированы по религиозным, историческим, эстетическим и тотемистским группам. Данная статья служит важным научным источником для исследований в области лингвистики, этнолингвистики и культурологии.

Ключевые слова: антропонимика, культурная коннотация, узбекские имена, религиозные имена, исторические имена, этнолингвистика.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Har bir xalqning antroponimik tizimi uning milliy-madaniy boyligini aks ettiradi. Ismlar insonlarning dunyoqarashi, an'analari va madaniy qadriyatlarning in'ikosidir. O'zbek antroponimikasi xalqning milliy-madaniy merosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, e'tiqodi va dunyoqarashini aks ettiradi. O'zbek ismlarining shakllanishida turli tarixiy, diniy va ijtimoiy omillar ishtirok etgan. Ular milliy

madaniyatimizning jozibador oynasi bo'lib, etnolingvistika, lingvopoetika va madaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ismlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodi va estetik qarashlari ifodalanadi. Ushbu tadqiqot o'zbek antroponimikasidagi madaniy konnotatsiyali nomlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va ularning jamiyatdagi o'rni masalasini ilmiy yondashuv asosida tahlil qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA
METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /**

MATERIALS AND METHODS).

Mamlakatimizda E.Begmatov[1], G'.Sattorov[2], R.Xudoyberganov[3], S.Kenjayeva[4] kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar asosida antroponomika sohasi takomillashdi. Ammo, o'zbek antroponimikasidagi madaniy konnotatsiyali nomlarning lingvistik va madaniy jihatlarining tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas, zero, bugungi o'zbek lingvomadaniyatida ushbu tadqiq obyekti bilan bog'liq nazariy asosni shakllantirishga yetarlicha sabablar mavjud. Binobarin, mazkur maqolamiz o'zbek antroponimikasidagi madaniy konnotatsiyali nomlarning o'rganilish metodologiyasi hamda uning xalq etnomadaniyati, tilida tutgan o'rmini yoritishga bag'ishlanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Avvalo **madaniy konnotatsiyali ismlar haqida to'xtalsak**. Konnotatsiya (lotincha connotatiocon "birga" + noto "eslatma, belgilash") lisoniy birlikning hamroh ma'nosidir. Konnotatsiya ona tilida so'zlashuvchilar ongida asosiy ma'no bilan mustahkam bog'langan qo'shimcha semantik yoki stilistik funksiyalarni o'z ichiga oladi[1]. Konnotatsiya hissiy pragmatik ma'lumotning bir turi (ko'rinishi) bo'lib, jamiyatning madaniy an'analarini aks ettiradi. Konnotatsiyalar – obyektlar va hodisalarning o'zini emas, balki ularga nisbatan ma'lum bir munosabatni aks ettiruvchi pragmatik ma'lumotlarning bir turi. V.I.Shaxovskiyning qayd etishicha, "konnotatsiya mantiqiy-predmetlik nominatsiyasiga hamroh bo'lgan, nom obyekti yoki uning muayyan belgisiga nisbatan bildirilgan so'zlochining hissiy munosabatidir" [5,C.21].

Konnotatsiya tilning ekspressivlik xususiyatini aks ettiruvchi hodisadir. Konnotatsiya til birliklarining ta'sirchanlik xususiyatini aks ettirsa-da, asosiy hollarda hissiy munosabat fonida reallashuviga ko'ra emotivlik hodisasi bilan bevosita aloqaga kirishadi.

Madaniy konnotatsiya – bu so'zlarning asosiy lug'aviy ma'nosidan tashqari jamiyat tomonidan shakllangan qo'shimcha ma'no va his-tuyg'ularni o'z ichiga oladigan hodisadir. O'zbek antroponimlarida madaniy konnotatsiya milliy an'analar, diniy e'tiqodlar, tarixiy hodisalar va xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqidir. Bu ismlar insonlarning shaxsiy identifikatsiyasidan tashqari, ijtimoiy va etnografik belgilarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Madaniy konnotatsiyali ismlar esa, ismlarning asosiy appellativ ma'nosidan

tashqarida, ism qo'yuvching istagi, e'tiqodi, bag'ishlovi, estetik olami va boshqa hissiy ta'siriylar bilan farzandlarini nomlaydigan, shu bilan bir qatorda milliylikni ham aks ettiruvchi nomlardir.

Alohida ta'kidlash lozimki, qadimiylar ismlar so'zning sehriga ishonish, bolani yovuz kuchlardan himoyalash maqsadida tanlangan. Masalan, oy, quyosh, yulduz so'zlar bilan bog'liq ismlar qadimda ularga sig'inish, ulardan madad so'rash ma'nosini ifodalasa, ismlar haqidagi tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ma'lum o'zgarishlarga uchragan va endilikda ular go'zallik, baxt-u omad tushunchalarini anglatadi va h. Shu sababli qadimiylar nomlarning tanlanish sababini belgilovchi ba'zi masalalarga qisqacha to'xtashni lozim topdik. Bular qadimiylar majusiylik davrida yuzaga kelgan: 1)totemik; 2)animistik tasavvurlar; 3)turli xil sig'inish usullaridir.

Bular haqida E.Begmatov o'z tadqiqotlarida to'xtalgan hamda Oy, Kun, Oytosh, Oyqanot, Bug'a, Kuch, Bars, Bo'ri, Yo'lbars, Tangri, Kun tangri, Oy tangri, Tong tangri, Tog'li, Oyjon, Oyxon, Yulduz, Yulduzoy, Yulduzxon, Bug'raxon va boshqa ismlarni tavsiflagan [6,B.11-38].

1245-yilda Mamluklar davlati (1250-1517) da Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy tomonidan yaratilgan "Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali" lug'at qismida atoqli otlar alohida guruhga ajratib berilgan. Masalan, yigirma ikkinchi faslda mamluklar (qullar), cho'rilar va boshqa tabaqa kishilarga qo'yiladigan "**Baybars** – amir va bars, Boybars, **Qarasonqur** – qora va sunqur, Qorasunqur, **Taybars** – toy va bars, Toybars, **Qulbars** – qul va bars, Qulbars, **Aybars** – oy va bars, Oybars, **Aqqus** – oq va qush, Oqqush, **Qaraqus** – qora va qush, Qoraqush, **Aydogdi** – oy tug'di, ya'ni oy chiqdi, Oytug'di, **Qaratay** – qora va toy, Qoratoy, **Agaceri** – o'rmon kishisi, Og'ocheri" singari otlarning ma'nosini keltirilgan. A.Shayxulovning fikricha, tatar tilidagi Ay (Oy), Koyash (Quyosh), Yoldiz (Yulduz), Yarik, Yarkiy (yorug', ya'ni yorug'lik, Bolit (Bulut), Buran (Bo'ron), Yamgirchi (Yomg'irchi), Asman (ko'k) kultiga, Arislan, Bolan (bug'u), Eteybay (kuzda tug'ilgan qo'y, echki bolasi), Kukar (Qo'chqor), Baytal (Baytal), qushlar nomi: Akkosh (Oqqush), Yarkarlugach (Jarqaldirg'och), Karga (Qarg'a) va boshqa hayvon va qushlarga sig'inishning qoldiqlaridir[7].

O'zbek antroponimiyasining yasalish tizimida shunday ism shakllari ham uchraydiki, ularning

komponentlari shaklan yonma-yon kelsalar-da ular orasida semantik aloqadorlik, grammatick aloqa, yaxlit ma’no mavjud emas. Masalan, Oytosh (ayollar ismi), Dadaqo’zi (erkaklar ismi) ana shunday nomdir. Oytosh ismini “oyning toshi”, “oydek tosh”, “oy toshdir”, “tosh oy” (aniqlovchi aniqlanmish) tarzida izohlash mumkin emas. Shu kabi Dadaqo’zi ismini ham “dadaning qo‘zisi”, “dada qo‘zidir” kabi boshqa ma’nolarda talqin etib bo‘lmaydi [8,B.245]. Bunday ismlar o‘zbek antroponimiyasida ma’lum miqdorni tashkil etadi. Masalan, Tursunali, Muhammadturdi, Ergashali, Toshkarim va boshqalar. Ular milliy an'analar, orzu-istiklar, ma’lum muhit ta’sirida yuzaga kelgan nomlardir.

O‘zbek ismlarining asoslari tadqiq qilingan maqolalar orasida O‘.Nosirovning “O‘zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba’zi mulohazalar” nomli maqolasi ajralib turadi. Unda o‘zbek ismlarining berilishi, bunda amal qilinuvchi rasm-rusumlar, ismlarning tanlanishi, yaratilishiga sabab bo‘luvchi turli motivlar haqida fikrlar aytilgan. O‘.Nosirov diniy ma’noli ismlarning, chaqaloqning tishlari salgina bo‘lsa-da ko‘rinib turganda beriladigan Bo‘ri, Bo‘rigul; go‘dakning badanida xoli bo‘lsa, qo‘yiladigan Xolboy, Xolbibi, Toji, Norboy, Norgul, Noriya, Norcha; bola tanasida qandaydir ortiqchasi bo‘lganda beriladigan Ortiq, Ziyod, Ziyoda, Qudrat; qo‘l, oyoq, barmoqlarida ortiqcha bo‘lganiga ishora qiluvchi Qo‘sh, Qo‘shboy, Qo‘shboq, Qo‘shoq, Oltiboy va boshqa tipdagisi ismlar haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirgan[9].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘zbek ismlarida madaniy konnotatsiyalarini quyidagi asosiy toifalarga ajratishimiz mumkin:

1. *Diniy konnotatsiyali ismlar* – Islom dini bilan bog‘liq bo‘lib, Qur’on va hadislardan olingan yoki diniy shaxslar nomi bilan atalgan ismlar. Masalan, Muhammad, Abdulloh, Fotima, Zaynab.
2. *Tarixiy va milliy qahramonlar bilan bog‘liq ismlar* – buyuk davlat arboblari, sarkardalar va olimlar nomidan kelib chiqqan ismlar. Masalan, Temur, Ulug‘bek, Bobur, Ibn Sino.
3. *Etnik va urf-odatlarga oid ismlar* – mahalliy an'analar, qadimiy turkiy urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ismlar. Masalan, To‘lqin, Bahodir, Go‘zal, Dilfuza.
4. *Estetik va badiiy ifodaligi ismlar* – go‘zallik, tabiat, ezbilik kabi tushunchalarni ifodalovchi ismlar. Masalan, Gulnoza, Shodiyor, Yulduz, Oybek.
5. *Ijtimoiy-mazmunga ega ismlar* – oilaviy qadriyatlar

va ijtimoiy tuzum ta’siri ostida shakllangan ismlar. Masalan, To‘ra, Xon, Bekmurod.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek ismlari xalqning madaniy kodini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tarixiy jarayonlar davomida diniy, etnik va ijtimoiy omillar ismlarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shunday qilib, o‘zbek antroponimikasida madaniy konnotatsiyali nomlarning o‘rganilishi xalqning tarixiy xotirasini, diniy e’tiqodlarini va madaniy an’analalarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Kelajak taddiqotlarida bu nomlarning ijtimoiy-lingvistik jihatlari, zamonaviy nomlash tendensiyalari va globalizatsiyaning ta’siri chuqurroq o‘rganilishi lozim bo‘igan sohadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Begmatov E.A O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013; O‘sha muallif. O‘zbek ismlari ma’nosи. – Toshkent: O‘zME, 1998. – B. 590; Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966. – 21 b.
2. Sattorov G‘. O‘zbek ismlarining turkiy qatlami. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1990. – 21 b.
3. Xudoyberganov R. O‘zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.
4. Kenjayeva S.E. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi. Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2019. – 26 b.
5. Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1987. – 192 с.
6. Begmatov E.A. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
7. Шайхулов А. Тематические группы татарских и башкирских личных имен доисламского периода // Номинация в ономастике. – Свердловск, 1991. – С. 137-142.
8. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
9. Nosirov O‘. O‘zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba’zi mulohazalar // Ilmiy asarlar. – Qarshi-Toshkent, 1965. – B. 194-197.